

Yozuvchi dahosiga ta'zim

Buyuk adib, o'zbek va qirg'iz halq yozuvchisi Chingiz Aytmatov 90 yillik tavalludi munosabati bilan Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi sobiq Bodomzor yo'li ko'chasiga buyuk adib Chingiz Aytmatov nomi berildi va shu ko'chaga adibning xaykali o'rnatildi. Joriy yilning 12 dekabr kuni Chingiz Aytmatovning haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Prezident maslahatchilari, Bosh vazir o'rinbosari, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zolari, Qirg'izistonning O'zbekistondagi muxtor elchisi va boshqa 30 taga yaqin chet davlatlarning vatanimizdagi elchilari ishtirok etishdi. Shu qatorda QXM fakulteti professor - o'qituvchilari hamda QXM kafedrasida katta o'qituvchisi A. Isakovning rahbarligida 1 - bosqich talabalarining ishtiroki to'la ta'minlandi. Ushbu marosimda talaba - yoshlarimiz ishtirok etishar ekanlar ular qalbida adabiyotga, kitob mutoalaa qilishga bo'lgan ishtiyoqlari kuchayganini sezish qiyin emas.



QXM fakulteti Ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I.Raximov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov